

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**SAMARQAND VILOYATINING TURIZM SALOHIYATIDAN SAMARALI  
FOYDALANISH VA UNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORA-  
TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA**

Samarqand viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish, nufuzli xalqaro tadbirlarni o‘tkazish va xorijiy mamlakatlardan ko‘plab mehmonlarni qabul qilishga hududni tayyorlash, zamonaviy turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va turistlar uchun yangi dam olish maskanlarini barpo etish, hududning iqtisodiy salohiyati va daromad bazasini kengaytirish, shuningdek, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

2019 — 2022-yillarda Samarqand viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari **1-ilovaga** muvofiq;

Samarqand viloyatida turizmni yanada rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” **2-ilovaga** muvofiq;

Xalqaro moliya institutlari, shu jumladan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan Samarqand viloyati bo‘yicha istiqbolli investitsiya loyihalari ro‘yxati **3-ilovaga** muvofiq;

Samarqand viloyatida avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish va turizm marshrutlari bo‘yicha piyodalar ko‘chalarini qurish obyektlarining ro‘yxati **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilarga:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari — transport vaziri A.J. Ramatovga — Samarqand viloyatida transport va muhandislik kommunikatsiyalarini rivojlantirish tadbirlarining samarali amalga oshirilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari A.A. Abduxakimovga — Samarqand viloyatida turizmni rivojlantirish bo‘yicha maqsadli parametrlar va vazifalarning o‘z vaqtida bajarilishi;

Samarqand viloyati hokimi E.O. Turdimovga — turizm infratuzilmasi obyektlarini qurish uchun yer uchastkalarining o‘z vaqtida ajratilishi, shuningdek, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanishini ta‘minlash bo‘yicha javobgarlik yuklansin.

3. Belgilansinki, 2019-yil 1-oktabrdan boshlab YUNESKO Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlar, shu jumladan bufer zonalaridan tashqari, Samarqand shahridagi yer uchastkalari mehmonxonalar qurish uchun jismoniy va yuridik shaxslarga “E-IJRO AUKSION” savdo maydonchasida elektron onlayn-aukitson orqali taqdim etiladi va quyidagi investitsiya majburiyatlari yuklanadi:

maydoni 6 sotixdan 15 sotixgacha bo‘lgan yer uchastkasini ajratishda investorga 50 ta xonadan kam bo‘lmagan mehmonxona qurish;

maydoni 15 sotixdan 30 sotixgacha bo‘lgan yer uchastkasini ajratishda holatda — 100 xonadan kam bo‘lmagan mehmonxona;

50 sotix va undan ortiq maydonga ega yer uchastkasini ajratishda — 200 ta xonadan kam bo‘lmagan, 3 — 5 yulduzli toifadagi standartlarga mos keladigan mehmonxona qurish yuklanadi.

4. Belgilansinki, Samarqand shahrining quyidagi asosiy ko‘chalarida xususiy investorlarni jalb qilgan holda, 2019 — 2021-yillarda turizm infratuzilmasi tashkil qilinadi:

“Universitet” xiyoboni — piyodalar uchun alleya va turistlar dam olishi uchun sharoit yaratish (“WI-FI” zonalar, zamonaviy yoritish, veloyo‘lak va yugurish uchun yo‘laklar va boshqalar);

Islom Karimov ko‘chasi — piyodalar alleyasini milliy usulda va o‘rta asrlar ruhida obodonlashtirish;

Alisher Navoiy va Pushkin ko‘chalari — musiqachilar, rassomlar, ko‘cha aktyorlari va tez ovqatlanish nuqtalari bilan birga piyodalar alleyasini tashkil etish;

Orzu Mahmudov ko‘chasi — gastronomik turizmni rivojlantirish bo‘yicha maxsus hudud tashkil qilish, xususan, turli mamlakatlar taomlari tayyorlanadigan ovqatlanish nuqtalarini tashkil qilish va ularni tungi vaqtda ham ishlashini ta‘minlash.

5. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi uch oy muddatda Samarqand shahridagi asosiy ko‘chalarda turizm infratuzilmasini tashkil etish bo‘yicha master-rejalar ishlab chiqilishini ta‘minlasin.

Samarqand viloyati hokimligi master-rejalar ishlab chiqilganidan so‘ng bir oy muddatda ularni xususiy investorlarning eng yaxshi takliflarini belgilangan tartibda tanlab olish va muhandislik hamda kommunikatsiya tarmoqlariga ulashni ta‘minlash orqali amalga oshirilishini ta‘minlasin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, Madaniyat vazirligi va Samarqand viloyati hokimligining:

Amir Temurning “Bog‘i baland” va “Bog‘i Shamol” bog‘lari joylashgan joyini aniqlash orqali xususiy investorlarni jalb qilgan holda, ularni qayta tashkil etish va tarixiy qiyofasini qayta tiklash;

O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi huzuridagi budjetdan tashqari Turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan Amir Temurning 12 ta bog‘i haqidagi axborotni ular joylashgan joyi, har bir bog‘ning xususiyatlari, maydoni, yaratilish tarixini yorituvchi interfaol xaritalar ishlab chiqish;

Samarqand viloyati mahalliy budjeti va O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan YUNESKO bilan kelishilgan holda, “Sheroz qal‘a” (Bulung‘ur tumani), “Dobusiya” (Paxtachi tumani), Revdat shaharchasi — Kofir qal‘a (Samarqand tumani), Afrosiyob shaharchasidagi (Samarqand shahri) arxeologik yodgorliklarni restavratsiya qilish;

arxeologik yodgorliklar hududida davlat-xususiy sheriklik shartlar asosida “ochiq osmon ostidagi” muzeylarni tashkil qilish va tashrif buyuruvchilarni elektron hisobga olish tizimlarini joriy etish, qurilish ishlarini amalga oshirmasdan sanitariya-gigiyena punktlarini, shuningdek, suvenir mahsulotlar sotilishini tashkil qilish.

7. Tajriba sifatida uch yil muddatga shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra 2020-yil 1-yanvardan:

a) O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi huzuridagi budjetdan tashqari Turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan Samarqand viloyati madaniy meros obyektlari va me‘moriy yodgorliklariga kirish joylariga elektron hisoblash tizimlariga ega zamonaviy turniketlarni tanlov asosida sotib olinadi, montaj qilinadi va o‘rnatiladi;

b) Samarqand viloyatining madaniy meros obyektlari va me‘moriy yodgorliklari obyektlarida chiptalar aylamasining yagona elektron tizimi asosida elektron biletlar sotilishidan tushgan pul mablag‘larini taqsimlash mexanizmi joriy etiladi, unga ko‘ra 2018-yil yakunlari bo‘yicha tushgan mablag‘lar, ushlab qolib, balans saqlovchilar hisob-raqamlariga yo‘naltirilgandan so‘ng quyidagi tartibda taqsimlanadi:

25 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasiga obyektning rekonstruksiya va restavratsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun;

25 foizi — balans saqlovchilarning hisob-raqamiga obyekt hududida obodonlashtirish ishlarini o‘tkazish va qulay sharoitlar yaratish uchun;

50-foizi — O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi huzuridagi Turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga Samarqand viloyatining turizm salohiyatini namoyish etish uchun.

O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tajriba yakunlari bo‘yicha uch oy muddatda ushbu mexanizmni respublikaning boshqa hududlaridagi madaniy meros obyektlari va me‘moriy yodgorliklarida joriy etishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

8. Samarqand viloyati hokimligi O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Qurilish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan birgalikda quyidagilarni nazarda tutilgan taklifni ikki oy muddatda ishlab chiqsin va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritisin:

Samarqand viloyatining eshkak eshish kanaliga tutash hududni zamonaviy kompleks infratuzilma va turistik zonalar, shu jumladan dam olish zonolari, mehmonxonalar, bolalar maydonchalari, suzish havzalarini yaratish bilan birgalikda rekonstruksiya qilish;

“Imom Al-Buxoriy” majmuasiga tutash hududlarni turizm infratuzilmasini qurish, shuningdek, ziyoratchilar va turistlar uchun qo‘shimcha qulayliklar, shu jumladan “halol” standarti bo‘yicha umumiy ovqatlanish obyektlari, diniy marosimlar va dam olish uchun joylar yaratish bilan birgalikda rivojlantirish;

“Alpomish” zavodi (sobiq “Krasniy dvigatel”) hududida zamonaviy dam olish va ko‘ngil ochar industriyaga ega “Turistik markazi”ni faqat YUNESKONing roziligi olingandan so‘ng tashkil etish.

9. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Samarqand viloyatida turizm infratuzilmasi obyektlarini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklariga xalqaro moliya institutlarining 100 million AQSh dollari miqdoridagi kredit liniyalarini jalb qilish masalasini ikki oy muddatda ishlab chiqsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi:

a) Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan birgalikda ikki oy muddatda: istiqbolli yo‘nalishlar bo‘yicha mavjud turizm ehtiyojidan kelib chiqib, xorijiy aviakompaniyalar bilan yangi aviaqatnovlar ochish to‘g‘risida muzokaralar o‘tkazish; mahalliy va xorijiy turistik kompaniyalar buyurtmanomalariga asosan “Samarqand” xalqaro aeroportida xorijiy turistlarni tashish uchun charter reyslarni amalga oshirishni tashkil qilish;

b) “Uzbekistan Airports” AJ va “Uzbekistan Airways” AJ bilan birgalikda Samarqand shahriga MDH, XXR, Indoneziya, BAA, Bangladesh, Yaponiya, Janubiy Koreya va Yevropa mamlakatlaridan turistlar oqimini ko‘paytirish uchun aviamarshrutlar ishlab chiqish;

v) “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, Qurilish vazirligi va Samarqand viloyati hokimligi bilan birgalikda Samarqand shahrida arqonli yo‘l qurish konsepsiyasini uch oy muddatda ishlab chiqsin va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

11. “Registon” ansamblini muhofaza qilish va undan foydalanish direksiyasi Samarqand viloyati hokimligi va Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan birgalikda 2019-yil 1-oktabrdan boshlab:

Turizm mavsumi davomida “Registon” kompleksining har kuni soat 7:00 dan (mart — noyabr) 24:00 gacha ish rejimi o‘rnatilishini;

turistlar uchun turizm xizmatlarini monetizatsiyalashga qaratilgan tegishli xizmatlar tashkil etilishini (teatr shoularni tashkil qilish, xavo sharida ekskursiya, ansambl tarixi xaqida qisqa metrajli filmlar namoyishi va boshqalar);

turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish maqsadida, obyekt hududida axborot ko‘rsatkich belgilari o‘rnatilishini ta‘minlasin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi:

Samarqand viloyatining madaniy meros obyektlari va me‘moriy yodgorliklariga elektron chiptalar bo‘yicha kirish rejimiga rioya etilishini nazorat qilish va turniketlarlardan o‘tishda inson omilining bartaraf etilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bilan birgalikda “Registon” ansamblida lazerli “3D-mapping” namoyishi vaqtida jamoat tartibini muhofaza qilishi tashkil etilishini ta‘minlasin.

13. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Madaniyat vazirligi va Samarqand viloyati hokimligi bilan birgalikda uch oy davomida:

mavsum bo‘lmagan davrda (20-noyabrdan 20-fevralgacha) respublika fuqarolari uchun narx belgilash qayta ko‘rib chiqilishi va chegirmalar tizimini joriy etish;

Samarqand shahrining madaniy meros obyektlari va me'moriy yodgorliklarning soat 22:00 gacha ishlashini ta'minlash orqali ish vaqtini qayta ko'rib chiqish bo'yicha choralar ko'rsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi loyiha-smeta hujjatlari belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o'tkazilishini hamda qurilish-montaj ishlarini sifatli bajarilishi yuzasidan tegishli davlat arxitektura-qurilish nazoratini ta'minlasin.

15. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan birgalikda ushbu qarorga 4-ilovada nazarda tutilgan Samarqand viloyatida turizm marshrutlari bo'yicha avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish va piyodalar ko'chalarini qurishga doir investitsiya takliflari ikki oy muddatda O'zbekiston Respublikasining 2020 — 2022-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturiga kiritilishini ta'minlasin.

16. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi turistlarni keng jalb qilish uchun uch oy muddatda:

Amir Temurning 12 bog'i joylashgan tarixiy joylar;

“Sheroz qal'a” (Bulung'ur tumani), “Dobusiya” (Paxtachi tumani), Revdat shahri — Kofir qal'asi (Samarqand tumani), Afrosiyob shaharchasi (Samarqand shahri) arxeologik yodgorliklarini turistik yo'nalishlarga kiritish choralarni ko'rsin.

17. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ikki oy muddatda takliflar kiritsin.

Vazirliklar va idoralar o'zlari qabul qilgan normativ-xuquqiy hujjatlarini bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

18. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari — transport vaziri A.J. Ramatov, Bosh vazirning ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari A.A. Abduxakimov hamda Samarqand viloyati hokimi E.O. Turdimov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 30-sentabr,  
828-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 828-son qaroriga  
1-ILOVA

## **2019 — 2022-yillarda Samarqand viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning**

### **MAQSADLI PARAMETRLARI**

<b>T/r</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2019-y.</b>	<b>2020-y.</b>	<b>2021-y.</b>	<b>2022-y.</b>
1.	Ichki tashrif buyuruvchilar (ming kishi yiliga)	2 500	2 800	3 100	3 500
2.	Xorijiy turistlar soni (ming kishi yiliga)	509	720	950	1 200
3.	Turizm xizmatlari eksporti (mln AQSh dollari)	139	224	360	558
4.	Mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari soni (dona)	150	180	200	250
5.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (birlik)	3 425	3 772	4 280	4 700
6.	Joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni (birlik)	4 891	5060	5150	6150
7.	Mehmon uylari soni (nafar)	150	230	250	300
8.	Turoperatorlar soni (nafar)	170	195	230	270

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 828-son qaroriga  
2-ILOVA

**Samarqand viloyatida turizmni yanada rivojlantirish bo'yicha**

**“YO‘L XARITASI”**

<b>T/r</b>	<b>Tadbirlar</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Ijro uchun mas’ullar</b>	<b>Nazorat uchun mas’ullar</b>
<b>I. Turizmni rivojlantirish, xorijiy va mahalliy turistlar sonini ko‘paytirish</b>				
1.	<p>Turistlar Samarqand davlat universitetidagi “Grubb Parsons” teleskopi orqali tungi osmonni kuzatish imkonini beruvchi “Samarqand ustida yulduzlar” dasturini tashkil etish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i></p>	2019-yil dekabr	<p><i>tashkil etish uchun</i> — Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (A. Akkulov)</p> <p><i>amalga oshirish uchun</i> — Samarqand davlat universiteti (R. Xolmuradov), Samarqand viloyati hokimligi (E. Turdimov)</p>	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
2.	<p>Samarqand viloyatining tarixiy va turizm obyektlarida turistlar uchun mahalliy aholining madaniyati va an‘analari to‘g‘risida sayyor spektakllar, shu jumladan tarixiy sahnalar, teatrlashgan namoyishlar tashkil etish va o‘tkazish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i></p>	doimiy asosda	<p><i>tashkil etish va o‘tkazish uchun</i> — Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (A. Akkulov), Madaniyat vazirligi (B. Sayfullayev)</p>	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
3.	<p>Vazirlik va idoralar tomonidan Madaniy-ko‘ngilochar va ommaviy sport tadbirlarining yagona taqvimini hisobga olgan holda, Samarqand viloyatida bir yilda kamida bitta xalqaro darajadagi tadbir (forum, konferensiya, seminar, davra suhbat va b.) o‘tkazilishini nazarda tutuvchi tadbirlar rejasini (MICE turizm) ishlab chiqish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: chora-tadbirlar rejasi</i></p>	har yili	<p><i>ishlab chiqish uchun</i> — Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (A. Akkulov), Samarqand viloyati hokimligi (E. Turdimov) <i>tashkil etish va o‘tkazish uchun</i> — manfaatdor vazirlik va idoralar</p>	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
4.	<p>Samarqand viloyatida 4-G tarmoq standartlarining signal darajasining ekspertiza va diagnostikasini o‘tkazish, shuningdek, aloqa darajasi va sifati kartografiyalash.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i></p>	2019-yil ◆oyabr	<p><i>amalga oshirish uchun</i> — Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sodiqov)</p>	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
5.	<p>Umumta’lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari tomonidan, shu jumladan ta’til davomida Samarqand viloyatining turizm obyektlariga tashrifini tashkil etish bo‘yicha 2020-2021-yillarga mo‘ljallangan jadvalni tasdiqlash.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: chora-tadbirlar rejasi</i></p>	2020-2021-yillar	<p><i>ishlab chiqish va amalga oshirish uchun</i> — Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (A. Akkulov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov), Xalq ta’limi vazirligi (Sh.</p>	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)

			<i>Shermatov</i> ), Samarqand viloyati hokimligi ( <i>E. Turdimov</i> )	
6.	<p>Oliy ta'lim muassasalari talabalarining tarix va madaniyat bo'yicha o'quv dasturlarini Samarqand viloyatining turizm obyektlariga tashrifi bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan talabalik turizmini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: chora-tadbirlar rejasi</i></p>	2020-2021-yillar	<p><i>ishlab chiqish va amalga oshirish uchun</i> — Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>I. Majidov</i>), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>A. Akkulov</i>), Samarqand viloyati hokimligi (<i>E. Turdimov</i>)</p>	Vazirlar Mahkamasi ( <i>A. Abduxakimov</i> )
7.	<p>Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi budjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan Samarqand viloyatining turizm obyektlarini aylanma manzarasiga ega raqamli foto va video xaritalar yaratish va ularni Internet tarmog'iga joylashtirish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i></p>	2020-yil aprel	<p><i>yaratish va joylashtirish uchun</i> — Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (<i>Sh. Sodiqov</i>) Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>A. Akkulov</i>)</p>	Vazirlar Mahkamasi ( <i>A. Abduxakimov</i> )
8.	<p>Samarqand viloyatining tarixi, etnografiyasi, gastronomiyasi, milliy liboslari, madaniy meros obyektlari va tarixiy yodgorliklari, shuningdek, ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha bo'linmalari to'g'risida qisqacha ma'lumotni o'z ichiga oluvchi axborot albomlari va kataloglari, yo'lboshlovchilari, joy xaritalari, tarqatma va reklama materiallarini ishlab chiqish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i></p>	doimiy asosda	<p><i>ishlab chiqish uchun</i> — Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>A. Akkulov</i>), Madaniyat vazirligi (<i>B. Sayfullayev</i>), Fanlar akademiyasi (<i>B. Yuldashev</i>), Ichki ishlar vazirligi (<i>P. Bobojonov</i>)</p>	Vazirlar Mahkamasi ( <i>A. Abduxakimov</i> )
9.	<p>Xorijiy va mahalliy turistlarga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan ovqatlanish shoxobchalari, klublar, ko'ngilochar va boshqa muassasalarning tunggi vaqtda (23-00 dan 06-00 gacha) ishlash rejimini tashkil etish va jamoat tartibini ta'minlash.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i></p>	2019-yil dekabr	<p><i>ta'minlash uchun</i> — Ichki ishlar vazirligi (<i>P. Bobojonov</i>), Samarqand viloyati hokimligi (<i>E. Turdimov</i>), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>A. Akkulov</i>)</p>	Vazirlar Mahkamasi ( <i>A. Abduxakimov</i> )
10.	<p>Samarqand viloyatining xalqaro aeroporti, temir yo'l vokzali va avtobus bekatlarida qo'shimcha valyuta alma-dinish shoxobchalarini tashkil etish bo'yicha takliflar kiritish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: takliflar bayon etilgan tahliliy ma'lumot</i></p>	2019-yil dekabr	<p><i>amalga oshirish uchun</i> — Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>A. Akkulov</i>), Transport vazirligi (<i>I. Maxkamov</i>), Samarqand viloyati hokimligi (<i>E. Turdimov</i>)</p>	Vazirlar Mahkamasi ( <i>A. Abduxakimov</i> )

11.	<p>Samarqand viloyatida “MICE” — tadbirlarni o‘tkazish uchun tegishli infratuzilmaga ega ishlab turgan salohiyatli obyektlar ro‘yxatini shakllantirish va ulardan faol foydalanishni rag‘batlantirish bo‘yicha choralar ko‘rish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i></p>	2019-yil dekabr	<p><i>ishlab chiqish va amalga oshirish uchun</i> — Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (A. Akkulov), Samarqand viloyati hokimligi (E. Turdimov)</p>	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
12.	<p>“So‘zana” tikish san‘atini YUNESKO Nomoddiy madaniy meros obyektlari ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: takliflar berilgan tahliliy ma’lumot</i></p>	2020-yil yanvar	<p><i>amalga oshirish uchun</i> — Madaniyat vazirligi (B. Sayfullayev), Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev), “Xunarmand” uyushmasi (U. Abdullayev)</p>	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
13.	<p>Xalqaro bozorda “Samarkand” turizm brendini ilgari surish bo‘yicha ishlarga xorijiy mamlakatlardagi o‘zbek diasporasini keng jalb etish choralarini ko‘rish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i></p>	2020-2021-yillar	<p><i>amalga oshirish uchun</i> — Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (A. Akkulov), Tashqi ishlar vazirligi (A. Kamilov)</p>	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
14.	<p>Yangi turizm obyektlarini namoyish etish maqsadida Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi huzuridagi budjetdan tashqari Turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan respublika hududlaridan turizm sohasi subyektlari uchun Samarqand viloyati bo‘ylab mavsum bo‘lmagan vaqtda axborot turlarini tashkil etish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i></p>	2020-2021-yillar	<p><i>tashkil etish uchun</i> — Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (A. Akkulov), Xususiy turizm tashkilotlari uyushmasi (G. Israilova)</p>	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
15.	<p>Samarqand viloyatining diqqatga sazovor turizm joylarining uch o‘lchamli maketlarini tayyorlash va tashrif uchun salohiyatli obyektlar sifatida turistlarga namoyish etish maqsadida ularni aeroportlarda, vokzallarda, avtobus bekatlarda, muzeylarda va boshqalarda joylashtirish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i></p>	2019-yil dekabr	<p><i>tayyorlash uchun</i> — Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (A. Akkulov)</p> <p><i>joylashtirish uchun</i> — Transport vazirligi (I. Maxkamov)</p>	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
16.	<p>Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi huzuridagi budjetdan tashqari Turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan Samarqand viloyatida motoklub tashkil etish istagini bildirgan yuridik shaxslarga (birinchi 10 loyiha uchun) 20</p>	2020-2021-yillar	<p><i>ajratish uchun</i> — Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (A. Akkulov)</p>	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)

	mln. so‘m miqdorida maqsadli grantlar ajratish. <i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i>			
<b>II. Turizm sohasida yangi infratuzilma obyektlarini tashkil etish va qurish</b>				
17.	Mahalliy va xalqaro darajadagi yirik ommaviy tadbirlar o‘tkazish uchun bir nechta majlislar zallaridan iborat alohida kongress-xollar loyihalarini ishlab chiqish, mazkur obyektlarni Kongresslar va Konferensiyalar xalqaro assotsiatsiyasida (ICCA) ro‘yxatdan o‘tishini ta’minlash. <i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i>	2020 — 2022-yillar	<i>ishlab chiqish uchun</i> — Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (A. Akkulov), Samarqand viloyati hokimligi (E. Turdimov)	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
18.	Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining yer uchastkalarini ajratish to‘g‘risidagi iltimosnomasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli qaror qabul qilish yo‘li bilan zamonaviy golf-komplekslarini tashkil etishni nazarda tutuvchi aniq investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish. <i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i>	2020-2021-yillar	<i>ishlab chiqish uchun</i> — Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (A. Akkulov) <i>o‘z vaqtida kelishish uchun</i> — Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi (A. Abdullayev)	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
19.	Nurobod tumani Oqsoy qishlog‘idagi “Hazrati Davud” ziyorat majmuasi hududida xususiy investorlar tomonidan arqon yo‘li, dam olish markazi, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish shoxobchalari va savdo markazini qurishi uchun Nurobod tuman hokimligi zahirasidan maydoni 5 gektar bo‘lgan yer uchastkasini ajratish. <i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i>	2019-yil noyabr	<i>amalga oshirish uchun</i> — Samarqand viloyati hokimligi (E. Turdimov) <i>o‘z vaqtida kelishish uchun</i> — Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi (A. Abdullayev)	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
20.	Davlat tashkilotlari balansida turgan bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlarini tanlab olish, keyinchalik ularni foydalanish uchun xususiy investorlarga davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida berish. <i>Amalga oshirish shakli: chora-tadbirlar rejasi</i>	2020-yil noyabr	<i>tanlab olish uchun</i> — Samarqand viloyati hokimligi (E. Turdimov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (S. Bekenov)	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
21.	YUNESKO bilan kelishgan holda resavrtor va tarixchilarni jalb etib, holda “Afrosiyob” qadimiy shahar hududida, qadimgi aholining yashash tarzi va sharoitlarini namoyish etuvchi tarixiy installatsiyani qayta yaratish. <i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy</i>	2020-2021-yillar	<i>amalga oshirish uchun</i> — Samarqand viloyati hokimligi (E. Turdimov), Madaniyat vazirligi (B. Sayfullayev), Fanlar akademiyasi (B.	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)



	<i>choralar</i>		<i>Yuldashev</i>	
22.	<p>YUNESKO bilan kelishgan holda qadimiy Samarqand hududida, qadimiy “Amir Temur” darvozalari, shu jumladan “Ark” qarorgohiga kiruvchi “Oq darvoza” portali joylashgan tarixiy joyda qayta tiklash ishlarini olib borish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i></p>	2020-2021-yillar	<i>amalga oshirish uchun</i> — Samarqand viloyati hokimligi (E. Turdimov), Madaniyat vazirligi (B. Sayfullayev), Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev)	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
23.	<p>Samarqand shahridagi (Samarqand viloyati hokimligi hududida) buyuk diniy ulamo Shayx Naridin Basir dahmasini YUNESKO bilan kelishgan holda qayta tiklash.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i></p>	2020-2021-yillar	<i>amalga oshirish uchun</i> — Samarqand viloyat hokimligi (E. Turdimov), Madaniyat vazirligi (B. Sayfullayev), Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev), “Vaqf” xayriya jamoat fondi (I. Xalilov)	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
24.	<p>Samarqand shahridagi (Samarqand viloyati hokimligi hududida) “Amir Temur hammomi”ni YUNESKO bilan kelishgan holda qayta tiklash.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i></p>	2020-2021-yillar	<i>amalga oshirish uchun</i> — Samarqand viloyat hokimligi (E. Turdimov), Madaniyat vazirligi (B. Sayfullayev), Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev)	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
25.	<p>YUNESKO bilan kelishgan holda Samarqand shahrining tarixiy joyida “Afrosiyob “qadimgi bozori” va savdo maydonlarini (Islom Karimov ko‘chasi) turizm dislokatsiyasi yangi obykti sifatida asl holatiga keltirish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i></p>	2020-2021-yillar	<i>amalga oshirish uchun</i> — Samarqand viloyat hokimligi (E. Turdimov), Madaniyat vazirligi (B. Sayfullayev), Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev)	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
26.	<p>Qadimiy texnologiyalar va materiallardan foydalangan holda Samarqand shahridagi Bibi Xonim majmuasi tarixiy ko‘rinishini (gumbazlari qismi) qayta tiklash.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i></p>	2020-2021-yillar	<i>amalga oshirish uchun</i> — Samarqand viloyat hokimligi (E. Turdimov), Madaniyat vazirligi (B. Sayfullayev), Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev)	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)
27.	<p>Samarqand shahrining YUNESKO himoyasidagi tarixiy qismining bufer va qo‘riqlanuvchi hududida videokuzatuv kameralari, obyekt to‘g‘risidagi ma’lumot, hudud xaritasi, himoyalannuvchi hududda tashrif buyuruvchilar majburiyatlari, ushbu qoidalarni buzganlik uchun javobgarlik to‘g‘risida ma’lumot, shu jumladan QR</p>	2020-yil mart	<i>amalga oshirish uchun</i> — Samarqand viloyat hokimligi (E. Turdimov), Madaniyat vazirligi (B. Sayfullayev), Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (A. Akkulov)	Vazirlar Mahkamasi (A. Abduxakimov)

	<p>kod orqali topish imkoniyatini beradigan ma'lumotlarni internetga joylashtirish, kerakli axborot burchaklarini o'rnatish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i></p>			
28.	<p>Samarqand viloyatidagi har bir tarixiy arxitektura yodgorligiga obyekt davlat va YUNESKO himoyasida ekanligi haqida axborot mavjud bo'lgan marmar peshtaxta o'rnatish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i></p>	2019-yil dekabr	<i>amalga oshirish uchun</i> — Samarqand viloyat hokimligi (E. Turdimov), Madaniyat vazirligi (B. Sayfullayev), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov)	Vazirlar Mahkamasi (A. <i>Abduxakimov</i> )
29.	<p>Turistlarni jalb qilishga, xalq ijodini saqlash va ommalashtirish, "so'zana" mahsuloti va boshqa suvenir mahsulotlarini ilgari surishga ko'maklashishga qaratilgan Samarqand viloyati Urgut tumanida "So'zana milliy markazi"ni tashkil etish konsepsiyasini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: Vazirlar Mahkamasi farmoyishining loyihasi</i></p>	2020-yil yanvar	<i>kiritish uchun</i> — Samarqand viloyat hokimligi (E. Turdimov) <i>o'z muddatida kelishish uchun</i> — Madaniyat vazirligi (B. Sayfullayev), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), Savdo sanoat palatasi (A. Ikramov)	Vazirlar Mahkamasi (A. <i>Abduxakimov</i> )
30.	<p>Samarqand viloyati Qo'shrabot va Paxtachi tumanlarida turizm sohasini (agro va ekoturizm) kompleks rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: takliflar bayon etilgan tahliliy ma'lumot</i></p>	2019-yil dekabr	<i>ishlab chiqish va kiritish uchun</i> — Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), Samarqand viloyat hokimligi (E. Turdimov)	Vazirlar Mahkamasi (A. <i>Abduxakimov</i> )
31.	<p>O'zbekistondagi barcha yog'och o'ymakorligi milliy maktablari eksponatlari va ekspozitsiyalarini o'z ichiga olgan "Yog'och o'ymakorligi milliy turlari" muzeyini yaratish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: takliflar bayon etilgan tahliliy ma'lumot</i></p>	2020-yil mart	<i>ishlab chiqish va kiritish uchun</i> — Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. Akkulov), Madaniyat vazirligi (B. Sayfullayev)	Vazirlar Mahkamasi (A. <i>Abduxakimov</i> )
32.	<p>Samarqand shahrida yirik madaniy-ko'ngilochar va konsert tadbirlarini o'tkazish uchun 2 ming kishiga mo'ljallangan amfiteatr qurish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish.</p> <p><i>Amalga oshirish shakli: takliflar bayon etilgan tahliliy ma'lumot</i></p>	2019-yil dekabr	<i>ishlab chiqish va kiritish uchun</i> — Samarqand viloyat hokimligi (E. Turdimov), Qurilish vazirligi (B. Zakirov)	Vazirlar Mahkamasi (A. <i>Abduxakimov</i> )
33.	<p>Respublika viloyat markazlarining gavjum ko'chalarida bepul asosda Samarqand viloyati turizm salohiyatini</p>	2020-yil mart	<i>ishlab chiqish uchun</i> — Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A.	Vazirlar Mahkamasi (A. A

	targ'ib qiluvchi bannyerlar o'rnatish. <i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i>		<i>Akkulov)</i> <i>o'rnatish uchun —</i> Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	<i>bduxakimov)</i>
34.	Mamlakatning mahalliy axborot kanallarida ommabop yo'nalishlar va turizm obyektlari namoyish qilinuvchi Samarqand viloyati turizm salohiyati to'g'risidagi videoroliklar joylashtirish. <i>Amalga oshirish shakli: tashkiliy choralar</i>	2020-yil mart	<i>ishlab chiqish uchun —</i> Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. <i>Akkulov</i> ) joylashtirish uchun — <i>MTRK</i> (A. <i>Xadjayev</i> )	Vazirlar Mahkamasi (A. <i>Abduxakimov</i> )
35.	Samarqand viloyatining tabiat maskanlari bo'ylab sayohat, havo sharida uchishni, paroplan va ziplaynlarni xususiy investorlarni jalb qilgan holda tashkillashtirishni o'z ichiga oluvchi yoshlar uchun faol dam olish va ko'ngilochar zonasini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. <i>Amalga oshirish shakli: chora-tadbirlar rejasi</i>	2020-yil yanvar	<i>ishlab chiqish uchun —</i> Samarqand viloyat hokimligi (E. <i>Turdimov</i> ), Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (A. <i>Akkulov</i> )	Vazirlar Mahkamasi (A. <i>Abduxakimov</i> )
